



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
TOSHKENT VILOYATI FILIALI**

Manzil: Nurafshon shahar, Birlik MFY, Toshkent yo‘li ko‘chasi 32-uy. Tel: +998
55-900-07-70 (#1024)

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/11-6393

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: UNUM BO‘STON SAVDO MCHJga berildi.
STIR: 303013954**

Obyekt nomi: Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani “Qoranko‘l” MFY hududidagi “Yangi O‘zbekiston” ko‘chasi, 1-uyda joylashgan sport-sog‘lomlashtirish lageri va dam olish maskani binolarini rekonstruksiya qilish hamda bir, ikki va yuqori qavatli mexmonxona binolari qurilishi uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonot” loyihasi.

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "ZEAL AND QUALITI" MAS'ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT**

STIR: 302501521

**Davlat ekologik ekspertizasi mas’ul eksperti: ISMAILOV ZUXRIDDIN
MIRZAMAXMUTOVICH**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7–bandiga mansub.

O‘tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 01.06.2025

Amal qilish muddati: 01.06.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo‘lgan talablar va boshqalar to‘g‘risida ilovada keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



A.Xolmurodov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

“UNUM BO`STON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbariyati quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- ob'ekt qurilishi jarayonida va uni ishga tushishidan avval davlat ekologik ekspertizasi xulosasining talablari bajarilganligi to'g'risidagi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi ishtirokida ob'ekt joylashgan joyning tekshirish dalolatnomasini taqdim etish;

- ob'ektni tashkil etishda o'simlik dunyosiga zararli ta'sirni kamaytirish uchun, ob'ekt hududida mavjud bo'lgan o'simliklarni maksimal darajada saqlashi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-sonli Farmonining 24-bandi 6-xat boshiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagi 93-sonli “Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori talablariga muvofiq, vakolatli davlat organlariga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga ruxsatnoma berish man etiladi;

- mazkur ob'ektni ushbu tanlangan yer maydoniga joylashtirishda, uning atrofidan o'tgan muxandislik (gaz, yo'l, suv, elektr, aloqa va boshqalar) tarmoqlarining muhofaza mintaqalarini saqlashi;

- chiqindilarning xavfsiz shart-sharoitda to'planishi, saqlash maydonida ekologik normadan oshiq joylashtirilmasligi, o'z vaqtida utilizatsiya qilinishini doimiy nazoratda tutish;

- chiqindilarni xavflilik darajasi va turiga qarab ajratgan holda to'plash va vaqtincha saqlashga mo'ljallangan maxsus punkt (MSP) tashkil etish hamda qattiq qoplamali maydonchalarda zarur miqdordagi qopqoqli konteynerlar o'rnatish;

- qayta tiklanadigan energiya manbalarini va resurs tejamkor texnologiya va uskunalardan foydalanish;

- sanitar tozalash bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalar bilan tuzilgan shartnomaga binoan maishiy chiqindilarning o'z vaqtida olib ketilishini ta'minlash;

-oqava suvlarni tozalash inshootidan chetlab o'tmagan holda qabul qilish o'ralarini soz holda saqlash va ularni avariya holatlarida ob'ektni oqava hosil qiluvchi manbalarning ish faoliyatini vaqtincha to'htatish;

- chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda tadbir etish;

- yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishdan himoya qilish uchun o'rani sanitar muhofaza zonasini saqlagan holda, ochiq suv havzalaridan maksimal uzoqlikda hamda suv o'tkazmaydigan temir-beton konstruksiyadan yig'ish, patogen mikroblar va bakteriyalarni ko'payishini oldini olish uchun o'rani vaqti-vaqti bilan dezinfeksiyalovchi vositalar bilan dezinfeksiya qilish zarur;

-ob'ektda hosil bo'ladigan oqava suvlarni chiqarib tashlash borasida, hududda suv muhofaza mintaqasidan tashqarida oqava suvlar tozalash inshooti tashkil etilishi va tegishli mutasaddi tashkilotlardan ruxsatnomalar olishi lozim;

- tuproq va yer osti suvlariga oqava suvlarini oqib o'tishini oldini olish uchun muntazam ravishda tozalash inshootlarining profilaktika tekshiruvlarini o'tkazish va kerak bo'lganda gidroizolyatsiyasini ta'mirlash tavsiya etiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.01.2021 yildagi 40-sonli "Qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi nizom talablariga amal qilish, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.10.2018 yildagi 787-sonli "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi nizomga muvofiq tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi ob'ektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qoidalari"ga asosan ishlarni tashkil etish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasida 2021 yil 27 fevraldagi o'tkazilgan o'quv seminarining 1-bayonidagi topshirig'iga ko'ra, Toshkent viloyati hududida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlariga qurilishi rejalashtirilgan obyektning qurilish boshlashidan avval ushbu tashkilotning qurilish chiqindilarini tashib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi sanitar tozalash korxonasi bilan shartnoma tuzish lozim.

Obyektni qurilish ishlarida daraxtlarni shikastlantirmaslik, daraxtlarning o'suvchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaslik hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktyabrdagi 290-sonli qarori va 17-01-2019-yildagi 43-sonli qarorlari talablariga rioya etilishi shart;

Toza texnologiyalardan samarali foydalanishda yelektr yenergiyasini imkon qadar tejovchi va obyekt faoliyati jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan yenergiya tejovchi muqobil yenergiyalardan foydalanishda

quyosh panelli batareyalari o'rnatilishini ta'minlash (O'z.Res. Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarori);

Sanoat mintaqalarini joylashtirishda aholiga nisbatan asosiy Shamol yo'nalishlarni hisobga olgan holda joylashtirish hamda ishlab chiqarish manbalariga va qozonxonalarga tozalash samaradorligi 99,5 foizdan past bo'lmagan chang va gaz tozalash uskunalarini o'rnatishni ta'minlash (O'z.Res. Prezidentining 2019-yil 30-oktyabr PF-5863);

“Yashil makon” va “Yashil belbog” umummilliy dasturiga muvofiq turar-joy binosiga tutash hududida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish va shu hudud iqlimiga moslashgan daraxt va bo'talarni obyekt maydonining 25 foizdan kam bo'lmagan qismida ekish (O'z.Res. Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199);

Mahallalardan hosil bo'ladigan oqova suvlar uchun markazlashgan tozalash inshooti tashkil yetilishi ta'minlash shart (O'z.Res. Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ 171-son qarori);

Obyekt hududida hosil bo'ladigan barcha chiqindilar uchun belgilangan zamonaviy chiqindi to'plash joylarini tashkil qilish va belgilangan tartibda to'planishi, saralanishi, olib chiqib ketilishi, zararlantirilishi, qayta ishlashga topshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

Qurilish chiqindilari mustaqil ravishda to'liq utilizatsiya qilinishini, qayta ishlanishini yoki takroriy foydalanilishini ta'minlash imkoniyatiga yega bo'lmagan chiqindi chiqaruvchilar qurilish chiqindilarini topshirish (berish) yoki realizatsiya qilish yuzasidan mazkur chiqindilarni to'plash, tashish, utilizatsiya qilish va (yoki) qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar, yoxud bunday chiqindilarni joylashtirish uchun maxsus ajratilgan obyektlar (qurilish yoki maishiy chiqindilar poligonlari)ga yega bo'lgan yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma tuzilishi va shartnoma nusxasi viloyat Yekologiya, atrof muhitni htmuhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasiga taqdim yetilishi ta'minlansin (O'z.Res. Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ 171-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28 yanvardagi 40-son qarori);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi “O'zbekiston respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 202-sonli qaroriga asosan, atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarining hisob-kitoblari to'lovini amalga oshirishi lozim.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun hamda loyihada keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga korxonra rahbari va loyiha tayyorlovchi korxonra rahbariyati qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishini eslatib o'tamiz.

Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmagan va yuqorida ko‘rsatilgan ob‘ekt faoliyatidan boshqa qo‘shimcha faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotishini ma‘lum qiladi va ob‘ekt uchun qaytadan tegishli ekologik xavfli toifa bo‘yicha “atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot” loyihasini ishlab chiqilib, belgilangan tartibda davlat ekologiya ekspertizasidan o‘tkazilishi shartligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari: Davlat ekologik ekspertiza xulosasi tadbirkorlar subektlarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladigan qonunchilikda belgilangan ruxsatnomalar tusidagi hujjatlarni bekor qilish yoki uning o‘rnini bosish xususiyatiga ega emas.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023 yil 23 noyabrdagi PF-199-sonli Farmonining 15-bandiga muvofiq, ob‘ekt qurilish hududining kamida 25 foizini ko‘kalamzorlashtirish maydonlariga ajratish va ularda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarni amalga oshirish;

- loyihada ko‘rsatilgan qurilish ishlari tugaganidan so‘ng, bino va inshootlar atroflari kompleks obodonlashtirish, daraxtlar ekib, “Yashil makon” barpo qilish, yashil maydonlarni muntazam sug‘orish va doimo tozaliigini saqlash;

Eslatma: O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasiga binoan, mazkur faoliyatni amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risidagi davlat ekologik ekspertizasining xulosasi ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat hisoblanmaydi.

Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof-muhitga zararli ta’sirlarini ekologik jihatdan baholashdan iborat va ushbu faoliyatning qonunchilikda belgilangan boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarini olish zaruriyatidan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 07.09.2020 yildagi 541-sonli Qarori 26-bandi 4-xatboshisiga binoan ekologik ekspertiza xulosasini olish maqsadida taqdim etgan hujjatlar va ma‘lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi uchun buyurtmachi javobgar hisoblanadi.

Eslatma: - 2016 yil 21-sentyabrdagi 409-sonli O‘zbekiston Respublikasi O‘simlik dunyosi muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun talablaridan kelib chiqib 51-modda bo‘yicha O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikga tortilishi belgilangan.

- Vazirlar Mahkamasining Ugam-Chotqol Davlat Milliy Tabiat bo'gi bo'yicha 2018-yil 14-avgustdagi 657-son qarori 7-bob, 58 bandida ko'rsatilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (hozirgi kunda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi) tomonidan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga hamda Tabiat bog'i rejimiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini, ilmiy faoliyat va monitoringni olib boradi;

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasiga binoan, ushbu ob'ektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi, berilgan kundan e'tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega. Xulosada ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganda va yuqorida ko'rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo'shimcha faoliyat turlari tashkil etilganda, tashlamalar va chiqindilar miqdori o'zgargan taqdirda, ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu davlat ekologik ekspertisasi xulosasida ko'zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanish, yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish ishlarini amalga oshirilishi va boshqa faoliyat turidan foydalanish ko'zlangan taqdirda "Atrof muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" (AMTTB) loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Davlat ekologik ekspertizasiga taqdim qilinishi hamda tegishli xulosa olinishi shart.

Toshkent viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi **Bo'stonliq tuman inspeksiyasiga** "UNUM BO`STON SAVDO" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ekologik qonunlari va me'yorlariga rioya etilishi ustidan muntazam nazorat hamda ob'ektni ishga tushirishdan oldin xulosa talablari to'liq bajarilganligini nazoratga olishi yuklatiladi.



Ma'sul ekspert: ISMAILOV ZUXRIDDIN MIRZAMAXMUTOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertiza markazi” Toshkent viloyati filialiga Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani “Qoranko‘l” MFY hududidagi “Yangi O‘zbekiston” ko‘chasi, 1-uyda joylashgan sport-sog‘lomlashtirish lageri va dam olish maskani binolarini rekonstruksiya qilish hamda bir, ikki va yuqori qavatli mexmonxona binolari qurilishi uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta’sir to‘g‘risidagi bayonot” loyihasi taqdim etilgan.

Ob’ektning umumiy maydoni 40000 m² tashkil etib, uning xududi shimol va g‘arbdan ichki yo‘l so‘ngra dala eki nmaydonlari bilan, sharq va junabdan tog‘bag‘ri qiyaliklari so‘ngra o‘rmon xo‘jaligiga qarashli yerlar bilan chegaralangan.

Loyihada ob’ekt joylashishining geografik koordinatalari berilgan. 1. 41.582366 69.861555 2. 41.583024 69.86339 3. 41.581002 69.864873 4. 41.57959 69.861257 5. 41.580184 69.861278 6. 41.580809 69.86174 7. 41.581114 69.862029 8. 41.582077 69.861579 9. 41.582366 69.861555

Eng yaqin aholi uylari ob’ektning shimoliy-sharq chegarasidan 3,6 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Ob’ekt joylashgan hududning fizik-geografik va iqlim holati xususiyatlari haqidagi ma'lumot “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risida bayonot” (AMTTB) loyihasining 1-bo‘limida to‘liq keltirilgan.

Mazkur mintaqada sizot suvlari yer sathidan 6-8 metr chuqurlikda joylashgan. Ob’ekt joylashgan hududda yirik ochiq suv havzalari mavjud emas.

“UNUM BO‘STON SAVDO” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taqdim etilgan “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot” loyihasini ko‘rib chiqish jarayonida ob’ektning joylashgan hududdagi yer maydonlarida daraxt ko‘chatlari (terak va tez o‘sadigan daraxt turari, tut va butalar) mavjudligi aniqlandi. Ob’ekt hududidagi ushbu daraxtlar, qurilishlar daraxtlardan holi yer maydonlarida amalga oshirilganligi sabab, kesilishga moyil daraxtlar mavjud emas. Loyiha bo‘yicha daraxtlar yoshi kichikligi sababli ularni ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarga ko‘chirish imkoniyati mavjud.

Avval ushbu ob’ekt bo‘yicha bolalar dam olish oromgohi va dam olish maskani binolarni qurishning “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risida bayonot” (AMTTB) loyihasi ishlab chiqilgan va unga “Davlat ekologik ekspertiza markazi” Toshkent viloyati filiali tomonidan 31.10.2022 yildagi 05/2-1997-sonli ijobiy ekologik ekspertiza xulosasi berilgan.

Bino va inshootlar maydonlari ob’ekt hududining 32039,8 m², qolgan maydonni esa qattiq qoplamali (3668,2m²), shuningdek yashil maydonlar va manzarali bog‘ yaratish (4292m²) tashkil etiladi.

Loyihada hududdagi mavjud bino va inshootlar hamda qurilishi rejalashtirilgan ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlar keng yoritilgan

Ovqat tayyorlash uchun ob'ektda elektr energiyasida ishlovchi qozon va plitalar o'rnatiladi.

Loyihaga ko'ra, dam olish maskaninida 150 kun faoliyat ko'rsatadi, ishchilar soni 27 kishini tashkil etadi.

Binoni zarur issiqlik bilan ta'minlash uchun split tizimida ishlaydigan (qish-yoz) issitish elektr uskunalari, ovqat pishirish uchun esa elektr pechlar o'rnatilishi rejalashtirilgan.

Ob'ektning xo'jalik-ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun suvni xududda oqib o'tuvchi buloq suvidan foydalaniladi, cho'milish havzalarini to'ldirish uchun esa artezian qudug'idan amalga oshiriladi. Ob'ekt maydoniga sepish uchun sarflanadigan suvi sarfi qaytmaydi, oqova suvlar hosil bo'lmaydi.

Hosil bo'ladigan xo'jalik-maishiy oqava suvlari to'g'ridan-to'g'ri tuman kanalizatsiya tarmog'lariga tashlanishi ko'rsatib o'tilgan.

Ochiq suv havzalaridan suv iste'mol qilish va ularga suv oqizib yuborish loyiha hujjatida nazarda tutilmagan.

Ob'ekt xonalarini mo'tadil haroratda bo'lishi uchun elektr energiyada ishlaydigan zamonaviy split konditsionerlardan foydalaniladi.

Loyiha bo'yicha ob'ektda atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar tashlovchi manbalar o'rnatilishi ko'zda tutilmagan.

Bundan tashqari loyihada qurilish davrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalardan tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalar: uglerod oksidi, azot ikki oksidi, azot oksidi, uglevodorodlar, qurum, benz(a)piren, noorganik chang, toluol, etil spirti bug'i, butil spirti bug'i, butilasetat, formaldegidlar, marganes oksidi, temir oksidi va oltingugurt sulfat anhidridi chiqarilishi haqida bayon etilgan.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, ob'ektning xo'jalik-ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun ichimlik suv shu hududda mavjud (ushbu quduqqa maxsus ruxsatnoma olingan) yer osti qudug'idan foydalaniladi. Yashil ekinlarni sug'orish va qattiq qoplamli (asfalt) maydonga sepish uchun sarflanadigan ariq suvi sarfi qaytmaydi, oqova suvlar hosil bo'lmaydi.

Hosil bo'ladigan xo'jalik-maishiy oqava suvlari **lokal tozalash inshootiga** yo'naltiriladi, so'ngra qayta foydalanish yoki sug'orishda foydalanish ko'zda tutilgan.

Yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishdan himoya qilish uchun o'rani sanitar muhofaza zonasini saqlagan holda, ochiq suv havzalaridan maksimal uzoqlikda hamda suv o'tkazmaydigan temir-beton konstruksiyadan yig'ish,

patogen mikroblar va bakteriyalarni ko‘payishini oldini olish uchun o‘rani vaqti-vaqti bilan dezinfeksiyalovchi vositalar bilan dezinfeksiya qilish zarur.

Yomg‘ir suvlari irrigatsiya tarmoqlariga yo‘naltirilib oqiziladi. Ochiq suv havzalardan suv iste‘mol qilish va ularga suv oqizib yuborish loyiha hujjatida nazarda tutilmagan.

Ob‘ekt xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, ob‘ekt ishga tushirilgandan so‘ng, umumiy miqdori yiliga 230,238 tonnaga teng 6 turdagi xavflilik darajasi IV va V sinfiga mansub ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarining paydo bo‘lishi aniqlandi. Loyihada barcha chiqindilarning hosil bo‘lish manbalari yoritilib, ularning yillik miqdori, me‘yorlari hisob-kitobi keltirilgan. **Har bir chiqindi turi uchun uni vaqtincha saqlash joylarini va ularning keyingi harakatlari ekologik tadbirlarini ko‘rib chiqish hamda chiqindi konteynerlarini o‘rnatish uchun maxsus betonlangan maydonni tashkil etish shart.**

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan avariya holatlar, yong‘in xavfsizligi va ularning oldini olish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan

Davlat ekologik ekspertizasining tahliliy natijalariga ko‘ra, ko‘rib chiqish uchun taqdim qilingan “Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risida bayonot” (AMTTB) loyiha hujjatlari amaldagi O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni, Nizom hamda qonunosti ekologik me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Davlat ekologik ekspertiza markazi” Toshkent viloyati filiali Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani “Qoranko‘l” MFY hududidagi “Yangi O‘zbekiston” ko‘chasi, 1-uyda joylashgan sport-sog‘lomlashtirish lageri va dam olish maskani binolarini rekonstruksiya qilish hamda bir, ikki va yuqori qavatli mexmonxona binolari qurilishi uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta’sir to‘g‘risidagi bayonot” loyihasini **ma’qullaydi**



Ma’sul ekspert: ISMAILOV ZUXRIDDIN MIRZAMAXMUTOVICH